



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Nortojiyeva Nuriya

Qarshi davlat universiteti
ORCID: 0009-0001-5369-3782
nortojiyevanuriya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik korxonalarida boshqaruv tizimini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xorijiy tajribaga (Bangladesh, Xitoy, Turkiya, Vetnam) va MDH mamlakatlari amaliyotiga tayangan holda, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan to'rt qavatli boshqaruv modeli hamda Boshqaruv rivojlanishi indeksi (BRI) formulasi taklif etiladi. Statistik tahlil 2020-2024-yillar ma'lumotlari asosida olib borildi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, boshqaruv tizimi, Lean-ishlab chiqarish, klasterli yondashuv, raqamlashtirish, ERP, KPI, eksport, mahsuldorlik.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Нортोजиева Нурия

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются механизмы развития системы управления на текстильных предприятиях Узбекистана. На основе зарубежного опыта (Бангладеш, Китай, Турция, Вьетнам) и практики стран СНГ предложена четырехступенчатая модель управления, адаптированная к условиям Узбекистана, и формула Индекса развития управления (ИРУ). Статистический анализ проводился на основе данных за 2020-2024 годы.

Ключевые слова: текстильная промышленность, система управления, бережливое производство, кластерный подход, цифровизация, ERP, KPI, экспорт, производительность.

MECHANISMS FOR DEVELOPING MANAGEMENT SYSTEMS IN TEXTILE ENTERPRISES

Nortojiyeva Nuriya

Karshi State University

Abstract. This paper analyzes the development mechanism of the management system at textile enterprises in Uzbekistan. Based on international experience (Bangladesh, China, Turkey, Vietnam) and the practices of CIS countries, a four-stage management model adapted to the conditions of Uzbekistan and the Index of Management Improvement (IRU) formula are proposed. The statistical analysis was conducted using data for 2020-2024.

Keywords: textile industry, management system, lean manufacturing, cluster approach, digitalization, ERP, KPIs, export, productivity.

Kirish.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish hamda tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, paxta xomashyosining ichki ishlab chiqarishda to'liq qayta ishlanishi va xomashyo eksportidan bosqichma-bosqich voz kechilishi to'qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini yanada oshirdi. "O'zbektekstilprom" uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda tarmoq eksporti 3,2 mlrd AQSh dollariga yetib, 2017-yildagi ko'rsatkichga nisbatan sezilarli darajada o'sgan. Bu esa to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish hajmi, texnologik quvvatlar va eksport imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Biroq ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi korxonalarda boshqaruv tizimlarini ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim yirik to'qimachilik korxonalarida boshqaruv jarayonlari hanuz an'anaviy usullarga tayangan holda tashkil etilmoqda. Vertikal ierarxiyaga asoslangan boshqaruv, qaror qabul qilishda subyektiv yondashuvlarning ustunligi, ma'lumotlar oqimining tarqoqligi, raqamli vositalardan yetarli darajada foydalanilmasligi va ichki koordinatsiya mexanizmlarining sustligi global raqobat sharoitida korxonalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi xalqaro bozor sharoitida xorijiy xaridorlar to'qimachilik mahsulotlariga nafaqat narx va sifat nuqtayi nazaridan, balki yetkazib berish tezligi, ishlab chiqarish jarayonlarining shaffofligi, ekologik va ijtimoiy standartlarga muvofiqligi hamda sertifikatlangan boshqaruv tizimlari mavjudligi bo'yicha ham talablar qo'ymoqda. Xususan, "just-in-time" tamoyili asosida yetkazib berish, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarish zanjirida izchillik va hisobotlarning ochiqligini ta'minlash zamonaviy to'qimachilik korxonalarida uchun muhim raqobat omiliga aylanmoqda. Shu bois texnologik modernizatsiya bilan bir qatorda boshqaruv tizimini ham innovatsion, moslashuvchan va raqamli yondashuvlar asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida yuqori samaradorlikka erishish ko'p jihatdan boshqaruv mexanizmlarining zamonaviylashtirilishiga bog'liq. Bangladeshda Lean-ishlab chiqarish va ixcham boshqaruv modellari, Xitoyda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarish boshqaruvi, Turkiyada klasterli yondashuv hamda Vetnamda sanoat parklari orqali standartlashtirilgan boshqaruv tizimlari tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajribalar to'qimachilik korxonalarida boshqaruv tizimini rivojlantirishda tashkiliy, texnologik va institutsional mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ham texnik va texnologik jihatdan yangilanish jarayonlari faol davom etmoqda. Ko'plab korxonalar zamonaviy uskunalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va eksportga yo'naltirilgan texnologiyalar bilan ta'minlangan. Biroq ayrim hollarda boshqaruv madaniyati, tashkiliy tuzilma, qaror qabul qilish mexanizmlari va raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish darajasi texnologik modernizatsiya sur'atlariga mos kelmayapti. Natijada zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq va samarali foydalanish imkoniyati cheklanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, to'qimachilik korxonalarida boshqaruv tizimini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyatga ega. Mazkur masala korxonalarining ichki boshqaruv samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish, inson resurslaridan oqilona foydalanish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir. Demak, to'qimachilik sanoatida texnik modernizatsiya va boshqaruv modernizatsiyasi o'rtasidagi tafovutni kamaytirish tarmoqning barqaror rivojlanishi va eksport salohiyatini yanada oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik sanoatidagi boshqaruv masalalari xalqaro tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, mazkur mavzuda tadqiqotchilarning turli qarashlari mavjud ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Porter (1985) o'zining "Raqobatbardoshlik strategiyasi" asarida to'qimachilik kabi an'anaviy tarmoqlar faqat narx raqobati orqali omon qolmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, boshqaruv tizimi qiymat zanjirining har bir bo'g'inini tahlil qiluvchi strategik vositaga aylanishi lozim. Biz bu fikrga qo'shilmiz, zero O'zbekiston to'qimachiligi ham paxtadan tortib tayyor kiyim-kechakgacha bo'lgan zanjirni bir qo'lda jamlaganida haqiqiy ustunlikka erishishi mumkin.

Drakker (2002) boshqaruvning asosiy vazifasini "bilim mehnatini samarali tashkil qilish" deb belgilagan. U ishchi kuchi ko'p bo'lgan tarmoqlarda ham har bir xodimning qaror qabul qilishdagi roli ortib borayotganini ko'rsatgan. Bu yondashuv O'zbekistondagi to'qimachilik korxonalarida ayniqsa e'tiborga olinishi kerak, chunki bizda ishchilar asosan bajaruvchi sifatida ko'riladi, lekin aslida ular ishlab chiqarish muammolarining eng nozik tomonlarini bilishadi.

Lyker (2004) "Toyota Way" kitobida Lean-boshqaruv falsafasini tavsiflagan. U boshqaruv mukammalligi bir martalik loyiha emas, balki kundalik takomillashtirish jarayoni ekanini isbotlab bergan. Lykerning "kaizen" tamoyili to'qimachilik kabi katta hajmdagi, takrorlanuvchi operatsiyalarga asoslangan sanoatda katta samara beradi, chunki har kungi kichik yaxshilanishlar yil davomida jamlanib, sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Gupta va Xu (2019) Xitoy to'qimachilik klasterlarini tadqiq qilib, korxonalar o'rtasidagi ma'lumot almashish tizimlari mahsuldorlikni 15-22 foizga oshirganini aniqlashgan. Ular klasterli boshqaruv modelini taklif. Biz bu tadqiqotni muhim deb bilamiz, chunki O'zbekistonda ham Namangan, Qashqadaryo, Buxoro kabi to'qimachilik hududlari mavjud, ammo ular orasida sistemali ma'lumot almashinuvi hali yo'lga qo'yilmagan.

MDH olimlari orasida Petrov (2018) boshqaruv tizimini rivojlantirishda "institutsional yondashuv" zarurligini ta'kidlaydi. U Rossiya to'qimachilik korxonalarida islohotlar faqat ichki jarayonlarni qayta qurish bilan cheklanib qolmay, tashqi institutlar, jumladan ta'lim, standartlashtirish, moliyalashtirish bilan birga olib borilishi kerakligini ko'rsatgan. Bu qarash bizning sharoitimizga mos keladi: yolg'iz korxonada darajasidagi islohotlar yetarli emas.

Qozog'istonlik iqtisodchi Sadikov (2021) to'qimachilik sanoatida boshqaruvni rivojlantirishning uch bosqichli modelini taklif etgan: birinchisi operatsion barqarorlik, ikkinchisi raqamlashtirish, uchinchisi innovatsion transformatsiya. Sadikovning fikricha, bosqichlarni chetlab o'tib bo'lmaydi, chunki har biri keyingisi uchun zamin yaratadi. Bu pozitsiya ko'p O'zbek korxonalarini uchun tanqidiy muhim, zero ularning aksariyati hozircha birinchi bosqichda operatsion barqarorlikni ta'minlash muammolarini hal qilmoqda.

Adabiyotlar sharhidan ko'rinib turibdiki, olimlar boshqaruvning turli jihatlariga urg'u berishadi: strategik yondashuv (Porter), inson omili (Drucker), uzluksiz takomillashtirish (Liker), klasterli integratsiya (Gupta-Xu), institutsional muhit (Petrov), bosqichma-bosqich transformatsiya (Sadikov). Bizning maqsadimiz ushbu yondashuvlarni O'zbekiston to'qimachilik sanoati sharoitida birlashtirib, yagona model shaklida taklif qilishdir.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining so'nggi besh yillik rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish tarmoqda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda investitsion faollik darajasini baholash imkonini beradi. Mazkur davrda to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida barqaror rivojlanib, xomashyoni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ulushini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish yo'nalishlarida sezilarli natijalarga erishdi. Shu sababli tarmoqning asosiy statistik ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish uning hozirgi holati va kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston to'qimachilik sanoatining so'nggi besh yildagi asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari, jumladan ishlab chiqarish hajmi, eksport miqdori, investitsiyalar, bandlik darajasi va boshqa muhim statistik ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar tarmoqning umumiy rivojlanish dinamikasini baholash, mavjud tendensiyalarni aniqlash hamda sanoat samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur jadvalda 2020-2024-yillar davomida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanish holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimli tarzda aks ettirilgan. Unda ishlab chiqarish hajmi, eksport miqdori, korxonalar soni, ishchi-xodimlar soni hamda bir xodimga to'g'ri keladigan mahsuldorlik darajasi yillar kesimida berilgan. Ushbu ko'rsatkichlar tarmoqning nafaqat miqdoriy o'sishini, balki ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligidagi o'zgarishlarni ham baholash imkonini beradi.

Jadval ma'lumotlari orqali to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, eksport salohiyatining ortishi, yangi korxonalar sonining ko'payishi hamda bandlik darajasidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Ayniqsa, bir xodimga to'g'ri keladigan mahsuldorlik ko'rsatkichining alohida keltirilgani tarmoqda texnologik yangilanishlar, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv samaradorligining oshib borayotganini tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois quyidagi jadval O'zbekiston to'qimachilik sanoatining 2020-2024-yillardagi rivojlanish dinamikasini kompleks baholashga xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining 2020–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	38 200	47 500	58 300	71 400	85 600
Eksport hajmi, mln AQSH dollari	1 850	2 260	2 740	2 980	3 200
Korxonalar soni, birlik	7 200	7 900	8 450	8 900	9 300
Ishchi xodimlar soni, ming kishi	420	450	475	495	510
Bir xodimga mahsuldorlik, mln so'm/yil	91,0	105,6	122,7	144,2	167,8

Manba: O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, besh yil ichida ishlab chiqarish hajmi 2,24 baravar, eksport 1,73 baravar, korxonalar soni 29 foizga oshdi. Ishchi xodimlar soni esa atigi 21,4 foizga ko'paydi. Bu shuni anglatadiki, o'sishning asosiy qismi mahsuldorlik hisobiga erishilgan, bu ham quvonarli.

Biroq raqamlarni chuqurroq tahlil qilsak, qiziq tendensiyalar ko'rinadi. Bir xodimga mahsuldorlik 91 mln so'mdan 167,8 mln so'mgacha o'sgan, ya'ni 84,4 foizga ko'paygan. Ammo ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati (124 foiz) mahsuldorlik o'sish sur'atidan yuqori. Bu farq taxminan 40 foiz qo'shimcha xodim jalb qilish va yangi korxonalar ochish hisobiga qoplangan, ya'ni ekstensiv omillar hali ham ustun. Boshqacha qilib aytganda, biz "ko'p ishchi – ko'p mahsulot" modelidan "kam ishchi – ko'p mahsulot" modeliga to'liq o'tmaganmiz.

Keyingi jadvalda eksportdagi tarkibiy o'zgarishlar keltirilgan, chunki bu boshqaruv tizimining samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkich.

O'zbekiston to'qimachilik eksportining tarkibiy o'zgarishi, foizda

Mahsulot turi	2020	2022	2024
Paxta tolasi	2,1	0,0	0,0
Paxta iplari	41,5	32,8	24,3
Gazlama	28,3	30,2	29,6
Trikotaj mahsulotlari	14,2	18,7	22,4
Tayyor kiyim-kechak	11,8	15,3	20,1
Boshqa	2,1	3,0	3,6
Jami	100,0	100,0	100,0

Manba: O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

2-jadvalni tahlil qilsak, paxta tolasi eksporti to'liq to'xtatilgani ijobiy natija. Paxta iplari ulushi 41,5 foizdan 24,3 foizgacha tushdi, ya'ni 17,2 foiz punktga qisqardi. Tayyor kiyim-kechak ulushi esa 11,8 foizdan 20,1 foizgacha, trikotaj 14,2 foizdan 22,4 foizgacha o'sdi. Bu zanjir bo'ylab yuqoriga ko'tarilish belgisi. Biroq dunyoning yetuk to'qimachilik eksportchilarida tayyor kiyim ulushi odatda 60-75 foizni tashkil etadi. Demak, bizda hali katta zaxira bor.

Nima uchun yuqori qiymatli mahsulotlarga o'tish sust kechayapti? Bu savolga javob aynan boshqaruv tizimining holatida yotadi. Tayyor kiyim ishlab chiqarish ipdan ko'ra ancha murakkab boshqaruv jarayonlarini talab qiladi: dizayn, brending, sifat nazorati, logistika, mijoz bilan ishlash. Bu yo'nalishlar o'z navbatida zamonaviy axborot tizimlari, malakali kadrlar va moslashuvchan qaror qabul qilish mexanizmlarini talab qiladi.

Shu o'rinda xorijiy tadqiqotchilardan M. Treysi va F. Vierseman (1995) ta'kidlaganlaridek, bozorda yetakchi bo'lish uchun korxonalar o'z qiymat taklifini aniq belgilab olishi va unga mos boshqaruv tizimini qurishi kerak. Ya'ni O'zbekiston korxonalar uchun asosiy savol: biz arzon va ko'p ishlab chiqaruvchi mamlakat bo'lib qolamizmi yoki sifat va innovatsiyada raqobatlashamizmi?

Hozirgi holatni tahlil qilish uchun uchinchi jadvalni ko'rib chiqaylik, u boshqaruv tizimining raqamlashtirish darajasini ko'rsatadi.

To'qimachilik korxonalarida zamonaviy boshqaruv vositalarining qo'llanilishi (2024-yil)

Vosita	Yirik korxonalar (%)	O'rta korxonalar (%)	Kichik korxonalar (%)
ERP tizimi	68	24	7
CRM tizimi	52	18	5
MES (ishlab chiqarish boshqaruvi)	41	11	2
Elektron hujjat aylanishi	84	51	19
Avtomatlashtirilgan sifat nazorati	47	16	4
KPI va natijaviy boshqaruv	39	13	3
Ish jarayonlari (BPM) tizimi	26	6	1

3-jadvaldan bir necha muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchisi, hatto yirik korxonalarda ham ishlab chiqarish boshqaruvi tizimi (MES) atigi 41 foizda joriy qilingan. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 85-95 foizni tashkil qiladi. Ikkinchisi, o'rta va kichik korxonalarda boshqaruv vositalari darajasi juda past, ya'ni sanoatning asosiy massasi hali ham qo'lda yoki yarim avtomatlashtirilgan holatda boshqariladi.

Olib borilgan tahlillar O'zbekiston to'qimachilik sanoatida so'nggi yillarda sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. 2020-2024-yillar davomida ishlab chiqarish hajmi, eksport miqdori, korxonalar soni va bandlik darajasi izchil oshgan. Ayniqsa, bir xodimga to'g'ri keladigan mahsuldorlikning 91,0 mln so'mdan 167,8 mln so'mgacha ko'tarilgani tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati mehnat unumdorligi o'sishidan yuqori bo'lgani sanoat rivojida ekstensiv omillar, ya'ni yangi korxonalar ochish va qo'shimcha ishchi kuchini jalb qilish hali ham muhim o'rin tutayotganini anglatadi. Demak, tarmoqda "ko'p resurs – ko'p mahsulot" modelidan "yuqori texnologiya – yuqori mahsuldorlik" modeliga to'liq o'tish jarayoni hali yakunlanmagan.

Eksport tarkibidagi o'zgarishlar esa to'qimachilik sanoatida qo'shilgan qiymat zanjiri bo'ylab yuqoriga siljish boshlanganini ko'rsatadi. Paxta tolasi eksportining to'xtatilgani va paxta iplari ulushining kamaygani xomashyo eksportidan bosqichma-bosqich voz kechilib, qayta ishlangan va tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga intilish mavjudligini bildiradi. Trikotaj mahsulotlari va tayyor kiyim-kechak ulushining ortishi ijobiy tendensiya hisoblanadi. Shu bilan birga, tayyor kiyim-kechak eksporti ulushining hali nisbatan pastligi tarmoqda yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyati to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi. Bu holat dizayn, brending, sifat menejmenti, logistika, marketing va xalqaro mijozlar bilan ishlash kabi boshqaruv funksiyalarini kuchaytirishni talab qiladi.

Zamonaviy boshqaruv vositalarining qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar esa tarmoqdagi asosiy cheklovlardan biri boshqaruv tizimining raqamlashtirish darajasi yetarli emasligi ekanini ko'rsatadi. Yirik korxonalarda ERP, elektron hujjat aylanishi va ayrim avtomatlashtirilgan tizimlar nisbatan kengroq joriy etilgan bo'lsa-da, MES, CRM, KPI va BPM kabi vositalarning qo'llanilishi hali yetarli darajada emas. Ayniqsa, o'rta va kichik korxonalarda raqamli boshqaruv texnologiyalarining juda past darajada qo'llanilishi ishlab chiqarish jarayonlarini samarali rejalashtirish, nazorat qilish va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati miqdoriy o'sish bosqichidan sifat jihatdan yangilanish bosqichiga o'tish arafasida turibdi. Ishlab chiqarish va eksport hajmlarining ortishi, xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish jarayoni hamda korxonalar sonining ko'payishi tarmoqning rivojlanish salohiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi. Biroq mazkur salohiyatdan to'liq foydalanish uchun boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonalar o'rtasidagi texnologik tafovutni kamaytirish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, to'qimachilik sanoatining keyingi rivojlanish bosqichida asosiy e'tibor faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga emas, balki boshqaruv samaradorligini kuchaytirish, mahsulot sifatini barqaror nazorat qilish, eksport tarkibini tayyor mahsulotlar foydasiga o'zgartirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga qaratilishi lozim. Aynan shu yo'nalishlar O'zbekiston to'qimachilik sanoatining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va uni yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan zamonaviy sanoat tarmog'iga aylantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi besh yil davomida barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari hamda mehnat unumdorligining sezilarli oshgani tarmoqda texnologik

modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va mahsuldorlik omillari kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining rivojlanish darajasi ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlariga to'liq mos kelmayapti. Bu esa tarmoqda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish uchun boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari zamonaviy boshqaruv vositalarining korxonalar faoliyatiga joriy etilishi hali yetarli darajada emasligini ham ko'rsatdi. Yirik korxonalarda ERP, elektron hujjat aylanishi, sifat nazorati va KPI tizimlari nisbatan kengroq qo'llanilayotgan bo'lsa-da, kichik va o'rta korxonalarda bunday vositalarning ulushi pastligicha qolmoqda. Aynan ushbu nomutanosiblik tarmoqda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, tayyor kiyim-kechak eksportini kengaytirish, brending va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish jarayonlarini sekinlashtirmoqda.

Shuningdek, tadqiqot boshqaruv tizimini rivojlantirish faqat alohida korxonada darajasidagi chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerakligini ko'rsatdi. Bu jarayon ichki korporativ boshqaruvni takomillashtirish, tarmoq miqyosida raqamli integratsiyani kuchaytirish hamda tashqi institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini birgalikda rivojlantirishni talab qiladi. Xalqaro tajriba ham shuni tasdiqlaydiki, to'qimachilik sanoatida yuqori samaradorlikka erishish uchun texnologik yangilanish, malakali kadrlar tayyorlash, logistika, sifat menejmenti va raqamli boshqaruv tizimlari o'zaro uyg'un holda rivojlanishi zarur.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati miqdoriy o'sish bosqichidan sifat jihatdan modernizatsiyalashuv bosqichiga o'tmoqda. Ushbu bosqichda asosiy vazifa ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir qatorda boshqaruv samaradorligini kuchaytirish, kichik va o'rta korxonalarda zamonaviy raqamli vositalarni keng joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda davlat, ta'lim muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlashdan iborat. Aynan shu yondashuv tarmoqning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash, eksport tarkibini takomillashtirish va O'zbekiston to'qimachilik sanoatini xalqaro bozorda mustahkam o'ringa ega zamonaviy sanoat tarmog'iga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Drucker P.F. (2002) Managing in the Next Society. New York: St. Martin's Press, -321 p.

Gupta A., Xu H. (2019) Cluster-based management models in Chinese textile industry // Journal of Industrial Management. №3. P. 45-62.

Liker J.K. (2004) The Toyota Way: 14 Management Principles from the World's Greatest Manufacturer. New York: McGraw-Hill, -330 p.

Porter M. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, - 557 p.

Treacy M., Wiersema F. (1995) The Discipline of Market Leaders. Addison-Wesley, -208 p.

Петров А.Н. (2018) Институциональный подход к развитию систем управления на текстильных предприятиях // Вестник экономики. №5. С. 112-128.

Садыков К.С. (2021) Тоқыма өнеркәсібі кәсіпорындарында басқару жүйесін дамытудың үш сатылы моделі // Қазақстан экономикасы. №2. Б. 78-95.